



MUROD MUHAMMAD DO'STNING “GALATEPAGA QAYTISH” QISSASIDA QO'LLANILGAN BA'ZI FONETIK, LEKSIK, GRAMMATIK DIALEKTIZMLAR HAQIDA

N.Narziyeva

SamDChTI AL o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijodkor individual uslubi va hududiy xoslanishga xos ba'zi dialektal birliklarning lisoniy xususiyatlari asar materiallaridan olingan misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sheva, dialekt, lahja, fonetik dialektizm, leksik dialektizm, grammatik dialektizm, dialektal frazeologizm.

Abstract: In this article, the author's individual style and the linguistic characteristics of some dialectal units characteristic of regional characteristics are analyzed based on the examples taken from the work materials.

Key words: dialect, phonetic dialecticism, lexical dialecticism, grammatical dialecticism, dialectal phraseology.

Ma'lumki, o'zbek adabiy tili ko'p dialektli turkiy tillardan biri bo'lib, xilma-xil shevalarga boyligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, hozirgi o'zbek tilining bugungi taraqqiyotida bu shevalarning o'rnini beqiyos. O'zbek tilining uzoq tarixiy tadriji natijasida juda ko'plab shevalardagi fonetik, leksik, grammatik birliklar adabiy tilimizda me'yorlashib, uning bugungi takomiliga xizmat qilib kelmoqda. Shu bilan birga bugunda ham bu til birliklari muayyan bir hududlarda o'ziga xoslik kasb etadi. Sheva forscha so'z bo'lib, *odat*, *ravish*, *yo'sin*; *qonun-qoida*, *yo'l-yo'riq* ma'nolarini anglatdi. [1: 564.] Sheva umumxalq tilining ma'lum hududga xos tarmog'i, mahalliy til hisoblanadi. Ayniqsa, badiiy adabiyotlarda dialektal birliklardan keng foydalaniladi. Badiiy asardagi bunday dialektal birliklar dialektizm nomi bilan yuritiladi. Badiiy asarlarda dialektizmlar turli



maqsadlarda qo'llaniladi. Badiiy asarning ta'sirchanligini oshirishda, asar tilining boy va jozibador bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Dialektizmlar badiiy asar tilida muhim uslubiy vosita sifatida ma'lum bir hududda yashovchi kishi, ya'ni personaj nutqining o'ziga xosligini ko'rsatish maqsadida qo'llaniladi va asarning xalqchilligini, mahalliy koloritini aks ettirishda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga asar matnidagi bunday dialektal birliklar hududiy xoslikni ifodalash vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun badiiy asar tilini dialektizmlarsiz tasavvur etish qiyin. Yozuvchi tomonidan qo'llanilgan dialektizmlar, o'quvchiga tasvirlanayotgan personaj xarakter-xususiyatini, uning qanday muhitda yashayotganligi, turmush tarzi, munosabati, nutqidagi o'ziga xos xususiyatlar to'g'risida aniq tasavvur qilish imkonini beradi.

Milliy tilning turli dialekt va shevalariga tegishli bo'lgan so'zlar faqat dialektolog va tilshunos olimlar ilmiy tadqiqot ishlarining mavzusi bo'lib qolmay, balki muhim badiiy tasvir vosita sifatida so'z san'atkorlari – yozuvchilar, shoirlar va boshqalarning ham diqqatini o'ziga jalb etadi. Dialektal so'zlarning o'ziga xos emotsional-ekspressiv va estetik vosita sifatida badiiy asarlarda ma'lum darajada qo'llanishi qonuniy hodisadir. Badiiy asarlarda shevaga xos so'zlarni qo'llash yozuvchining o'ziga xos uslubi, yo'nalishi individualligini ham belgilab berishga xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, dialektlar adabiy tilning boyishi uchun tabiiy manbalardan biri bo'lib qoladi. Dialektizmlarning adabiy tilga singib ketish jarayoni qiyin kechadi, lekin badiiy adabiyotning ta'sirchan kuchi orqali bir asarda qo'llangan dialektizm keyingi asarlarga o'tadi va shu tariqa umumxalq mulkiga aylanadi va adabiy tilda o'zlashib ketishi mumkin.

Shundan kelib chiqib, biz ham mazkur maqolada atoqli adib Murod Muhammad Do'stning “Galatepaga qaytish” asarida uchraydigan ba'zi bir fonetik, leksik, grammatik dialektizmlarni yoritishga harakat qildik.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, yozuvchi ushbu asarda fonetik dialektizmlardan mohirona foydalanganligiga guvoh bo'lamiz. Asarda fonetik dialektizmlarni qo'llashda personajning yoshiga, jinsiga alohida e'tibor berilgani ham asarning milliy koloritini oshirishda muhim omillardan biri hisoblangan. Fonetik dialektizmlar badiiy asarlarda



muayyan shevaga oid fonetik xususiyatlarni aks etishidir. [2: 65] Ushbu asardagi kuzatishlarimiz natijasida quyidagi tovushlar bilan bog'liq dialektizmlarni tahlil qildik.

[B] fonemasi o'zidan keyingi bo'g'inda [n] tovushi bo'lsa regressiv assimilyatsiya natijasida burunlashadi.

Masalan: *Büniñ>müniñ//müni, büngä>müngä,bündäy>mündäy,bündäq>mündäq. Bolmäsäm, müllä...ündä... menga müniñ hämmäsiniñ nimä kerägi bär. [3: 7]. Müni biliş keräk mävlänä Sāät,-dedi ü.-Müni sällä orägän eşşäk häm bilädi. [3: 24].*

– *Müniñ gäpgä nimä daxli bär? – deb häyrän boldi mülla Dāniyārning kenjəsi. [3: 63]. – Siz häm mündäq bir ādām zātigä işāning,koñlingizni āčibrāq yürin. [3: 233]. – Müniñ aqlini päşist ālgän, – dedi Ibādüllā Maxsüm. [3: 234]. Müniñ zärrä günāhī bolmäsä yürgän yolidä āziyāt korädi,kulgiyām şüniñ bāşida ermäk häm. [3: 234]. Siz müña şälčāni quruqrāq jāyga to'şāb berin,Tāşpolātbāy. [3: 234]. Avvällāri mündäy emäsdim endi bilsām haqqim ketädigändäy. [3: 235].* O'zbek adabiy tiliga xos bo'lgan barcha shevalarda [b//m] tovushlarining almashinishi uchraydi, lekin adabiy forma sifatida so'z boshida [m] tovushini emas, balki [b] tovushini qo'llash qabul qilingan.

Adabiy-orfografik [v] shevalararo [b] yoki [p] fonemasi bilan almashadi. Masalan: *Qavat>qabat. Xudo yetti qabat osmonni yaratdi, farishtalarni maloiklarni,jinlar va moridlarni va eng oxirida odamni, siz aytgan Odam Atoni yaratdi. [3: 23].*

Unli va sonor tovushlar o'rtasida [h] tovushi [y] tovushi bilan almashadi. Masalan: *O'ziyam<o'zi ham, bo'lsayam<bo'lsa ham, buyam<bu ham, kulgiyam<kulgi ham, mullayam<mulla ham, uyam<u ham, menikiyam<meniki ham. Keyin xotinning o'ziyam ko'pga bormadi kuyib ado bo'ldi. [3: 18]. Uyam munga o'xshagan mo'minroq odam. [3: 234]. Rahmatli oqsoqol buni yaxshi ko'rardi. Sal gapga chivinlab ketardi, lekin Murodboyning hamma so'kishiga chidardi. Bechora buyam qariyabdi. [3: 233]. – Muning zarra gunohi bo'lmasa yurgan yo'lida aziyat ko'radi,kulgiyam shuning boshida ermak ham. [3: 234]. –Menikiyam qalbaki bo'ladi-da, Maxsum buva, – dedi G'aybarov. [3: 235]. Rost gapdan hatto mullayam qo'rqadi. [3: 235].*

[F] undosh tovushi o'zbek adabiy tili va Samarqand-Buxoro tipidagi shevalarda ikki tillilik (ya'ni o'zbek va tojik tillarining) mavjud bo'lganligi sababli tojik tilidagi kabi



[p]va [f] tovushlarining differentsiatsiyasi aniq saqlangan. Biroq o'zbek tilining boshqa shevalarida (qarluq-chigil-uyg'ur, qipchoq va o'g'iz lahjalaridagi ko'pchilik shevalarda) [p] va [f] tovushlari farqlanmaydi. Bu shevalarda [f] tovushi o'rniga [p] fonemasi qo'llaniladi. Masalan: *fashist > pashist. Pashist urdi, Mmanzar u-urdi... Hamma uradi...* [3: 230].

Badiiy matnda yozuvchilar o'z qahramonlarini o'zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so'zlarni ishlatadilar. Bunday shevaga xos so'zlarning badiiy matnlarda qo'llanilishiga *leksik dialektizmlar* deb yuritiladi. Murod Muhammad Do'st ham o'z asarida leksik dialektizimlardan ustalik bilan foydalangan. Quyida biz ularning ba'zi birlarini tahlil qilishga harakat qildik.

[Beh] Afzal, yaxshi, durust: *Mayli xotini uni ming bora yo'ldan ursin, pichoq qilib qayrasin, otangning, sening taningga tig' qilib sanchisin, lekin bari bir Movlonboy sendan behroq.* [3: 6].

[Guppi] hovliqma, shoshma-shoshar: *Lekin ochil kuchni birov hisobga qo'shmaydi. Ochil Kuch guppiroq odam, gapga tez uchadi.* [3: 9].

[Eltmoq] olib bormoq; tashimoq: *Panji o'g'rini ikki marta Kattaqo'rg'onga eltib hibsl qilgan.* [3: 10].

[Ena] ona: *Nima qilay yolg'iz tirnoq o'g'ilman, qari otam, qari enam bor.* [3: 10].

[Ilkis] yengil: *G'aybarovning jahli qo'zg'aldi mullaga ilkis qaradi.* [3: 28].

[Lo'labolish] yostiq: *Zokir uning boshidagi qattiq lo'labolishni olib yumshoqrog'ini qo'ydi.* [3: 32].

[Moshin] mashina: *Sen moshin haydaysan senga osonroq.* [3: 64].

[Tuyqusdan] to'satdan, kutilmaganda : – *Ena, – dedi u tuyqusdan, – otam bilan keyin hech gaplashganmisiz?* [3: 75].

[Biqinmoq] yashirinmoq, bekinmoq: *G'aybarov biqinibroq borib chuqurga sakradi.* [3: 85].

[Ulgi] kam qo'll. O'rganishga, taqlid qilishga loyiq narsa, ish foaliyat, harakat; ibrat, namuna, o'rnak: *Bir parcha ulgi bo'lib saqlaning ko'hna devor izlari uning oldida hech narsa emas.* [3: 91].



[Muchchi] o'pich, bo'sa: *Kinoteatrning qishki bog'idagi chang bosgan palma ortidan olingan, hurkak va begunoh muchchi.* [3: 122].

[Davangiday] davangirday; gavdali, zabardast: *Keyin balsam ular o'sha joyda o'tirgan davangiday piyonista yigitni “dev” deb laqab qo'yishgan ekan.* [3: 157].

Nutqimizdagi turg'un va barqaror so'z birikmalari, iboralari frazeologizmlar deb yuritiladi. O'zbek lahja va shevalarida ham juda ko'p frazeologik iboralar uchraydi. Ular qo'llanishi, tuzilishi va ta'sir bo'yog'i bilan ham xilma-xildir. [4: 291]

[Tishini kirini sidirmoq] *Toshpo'lat G'aybarovga tishini kirini sidirib bo'lsa ham, har oyda yuz so'mdan jo'natar edi.* [3: 4]

[Surobini to'g'irlamoq] *Ochil o'zining Kuch laqabini eshitgan mahal bir gaz o'sardi, hovliqib xitob qilgan: “Qo'ying yurt og'asi men o'zim surobini to'g'irlayman”.* [3: 9]

[Rangi chiqmoq] *Raim oqsoqolning nikohiga o'tgan ayollarning rangi chiqmadi, barisi ezilibroq yashab o'tdi.* [3: 17]

[Tegirmoniga suv qo'ymoq] *G'aybarov o'zi istamagan holda Mulla soat tegirmoniga suv qo'yganini payqadi.* [3: 25]

[Kayfi chog'] *Murod amaki yashil kosada maosh qilgani zahoti kayfi chog' bo'lib qolardi.* [3: 51]

[Yer tishlamoq] *Issiq yo'l toshloq, buning ustiga jinni mudom oyoqyalang yuradi, oyog'ini ywr tishlaydi.* [3: 17]

[Pinagini buzmoq] *Samad akam bo'lsayam tek turmasdim, bu esa pinagini buzmay jim o'tiribdi.* [3: 115]

[Onasi o'pmagan] *Senga onasi o'pmaganini olib beraman qayg'urma, qayg'ursang, tezda qarib qolasan.* [3: 130]

[Peshonang terlamaydi] *Raim oqsoqol kuldi: "O'sha gap, jiyan, sening peshonang terlamaydi, jiyan, men aytdi, deysan, balki, hozir kissang to'la puldir, lekin biring ikki bo'lmaydi, seni yurgagingda urib ketgan.* [3: 170]

[Gapga kashta chekmoq] *Gapga kashta chekishning nima keragi bor. Zamira yaxshi qiz bekorga tirg'almaydi. Menga shunday odmi qizlar yoqadi.*



[Miq etmoq] Kamsuqumlik bilan miq etmay yuramiz. Qarabsanki, o'zimiz ham sezmagan holda chekkaga chiqib qolamiz. [3: 114]

[Luqma tashlamoq] *G'aybarov Haykal G'aniyevichning norozi qiyofasidan luqma tashlashga chog'langanini ko'rib,so'zini shosha-pisha davom ettirdi.* [3: 152]

[Tili qisiq bo'lmoq] *Xullas o'sha boyvachcha ko'pchilikni tilini qisiq qilgan.* [3: 167]

[Pashshadan fil yasamoq] *Sizga qolsa,mening ojizgina shubhamni shishirib, pashshadan fe'l yasaysiz.* [3: 172]

[Qulog'i tinchimoq] *Ota quloq solmadi, o'zi aytganida turib oldi: otasan bolam men o'lsam sening qulog'ing tinchiydi.* [3: 176]

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, atoqli yozuvchi Murod Muhammad Do'st asarlarida dialektizmlar qahramonlarning qaysi hududga mansubligi, makon va zamon, milliy koloritni ifodalash vazifasi bilan birga, personajlar nutqini individuallashtirish, ifodalanmoqchi bo'lgan fikrni yanada aniqlashtirish kabi lingvopoetik vazifalarni ham ado etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild – T.: O'zME, 2008.
2. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – T.: 2013.
3. Murod Muhammad Do'st. Galatepaga qaytish yoxud saodatmand G'aybarov rivoyati – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – 240 b.
4. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. – T.: “O'qituvchi”, 1996.